

ISLOM BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH

Egamberdiyeva Dildora

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Rahmonov Rasul Ne'matovich

Annotatsiya. Islom muassasalari so'nggi 10 yillik ma'lumotlarga ko'ra yuqori o'sishni qayd etgan, shuningdek 2021-yilda islom moliya bozorlari aktivlarining umumiy qiymati qariyb 3,95 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026-yilga borib 5,9 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, fond bozorlarida banklar duch keladigan xavf ham, raqobat ham ortib bormoqda. Natijada, islom banklarining investitsiya mexanizmlari va yondashuvlarini izlab topish, bu banklar an'anaviy banklarga nisbatan yuqori xavfga duch kelishini hisobga olish kerak. Moliyaviy operatsiyalarning shariat qoidalariga sodiqliklari tufayli ular tavakkalchilikka nisbatan cheklangan tanlovga ega va shuning uchun riskni tahlil qilish, boshqarish va nazorat qilish zarurati tug'iladi. Tadqiqotning maqsadi, Islom banklari duch keladigan risklar va bunday risklarni boshqarish va nazorat qilish vositalari tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: xatar, risk boshqaruvi, kredit xatari, likvidlilik xatari, bozor xatari, operatsion risk, sha'riyat, identifikatsiyalash.

Abstract. According to the data of the last 10 years, Islamic institutions have recorded high growth, and in 2021, the total value of assets of the Islamic financial markets was about 3.95 trillion US dollars. It is predicted that this figure will reach 5.9 trillion US dollars by 2026. At the same time, both the risk and competition faced by banks in the stock markets are increasing. As a result, researching the investment mechanisms and approaches of Islamic banks should take into account that these banks face higher risks than conventional banks. Due to the commitment of financial transactions to the rules of Sharia, they have a limited choice regarding risk and therefore the need to analyze, manage and control the risk. The purpose of the study is to analyze the risks faced by Islamic banks and the means of managing and controlling such risks.

Key words: risk, risk management, credit risk, liquidity risk, market risk, operational risk, sharia, identification

Аннотация. По данным последних 10 лет, исламские институты зафиксировали высокие темпы роста, и в 2021 году общая стоимость активов исламских финансовых рынков составила около 3,95 триллионов долларов США. Прогнозируется, что к 2026 году эта цифра достигнет 5,9 триллиона долларов США. В то же время риски и



2-TOM, 5-SON

конкуренция, с которыми сталкиваются банки на фондовых рынках, возрастают. В результате при исследовании инвестиционных механизмов и подходов исламских банков следует учитывать, что эти банки сталкиваются с более высокими рисками, чем традиционные банки. Из-за соответствия финансовых транзакций правилам шариата они имеют ограниченный выбор в отношении риска и, следовательно, необходимость анализировать, управлять и контролировать риск. Целью исследования является анализ рисков, с которыми сталкиваются исламские банки, а также средств управления и контроля таких рисков.

Ключевые слова: риск, управление рисками, кредитный риск, риск ликвидности, рыночный риск, операционный риск, шариат, идентификация.

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda Islom moliyasi butun dunyoda, shu jumladan, musulmon bo‘lmagan mamlatlarda ham rivojlanishi moliyalashtirishning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi. Asosiy moliyaviy bozorlar Islom moliyasi allaqachon global moliya tizimiga kiritilganligi va qashshoqlikka qarshi kurashish va hayot farovonligini oshirish muammolarini hal qilishda yordam berish imkoniyatiga ega ekanligining ishonchli dalillarini topishmoqda. Ushbu tendensiyani ushlab turish va yanada rivojlanish uchun islom banklari faoliyati davomida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishi muhim masaladir. Asosan kredit bilan bog‘liq xatarlarni boshqarishga majbur bo‘lgan an‘anaviy banklardan farqli ravishda, Islom banklari turli-tuman xatarlarni boshqarishga majbur, zero islom moliyasi tamoyillariga ko‘ra ularning o‘z mijozlar bilan munosabati “qarz beruvchi-qarzdor” emas, balki “sotuvchi-xaridor” yoki “hamkorlik” munosabatlariga asoslangan. Moliyaviy operatsiyalarning shariat qoidalariga sodiqliklari tufayli ular tavakkalchilikka nisbatan cheklangan tanlovga ega va shuning uchun riskni tahlil qilish, boshqarish va nazorat qilish zarurati asos qilib olinadi.

Asosiy qism

Risklar moliyaviy muassasalar (masalan, banklar) o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan: strategik, amaliy, moliyaviy hamda o‘rnatilgan talablarga muvofiqlikni ta‘minlash bo‘yicha maqsadlarga erishishga ta‘sir ko‘rsatuvchi biron-bir hodisani anglatadi¹.

Risk - bu bankning rejadan tashqari yo‘qotishlarga duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan kelajakdagi imkoniyat, bu tashkilotning maqsadlariga erishishga ta‘sir qiladi va agar u nazorat qilinmasa, bankrotlikka olib kelishi mumkin deya ta‘rif berilgan².

Risk, shuningdek, biznes yoki kapitalda bevosita yoki bankning o‘z maqsadlariga erishish qobiliyatini cheklash orqali bilvosita yo‘qotish ehtimoli sifatida aniqlanadi. Bunday

¹ Baydavlet Y.A. *Islomiy moliyasi asoslari.* «O‘ZBEKISTON» NMIU. 2019. 144-bet

² *Financial Sai‘d Hussein, Risk Management in Islamic Institutions, Courses of Risk Management, Jordan. 2015*



2-TOM, 5-SON

cheklashlar, bir tomondan, xizmatlar ko'rsatish va amaliy faoliyatni amalga oshirishda institutni zaiflashtiradi, ikkinchi tomondan, bank kontekstidagi mavjud imkoniyatlardan foydalanadi.

Dastlab, an'anaviy banklar va islom banklariga xos bo'lgan risklarni ko'rib chiqamiz.

- kredit riski- shartnomadagi ikkinchi tomon, shartnoma shartlari bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'la hajmda bajara olmagan holatda yuzaga keladi. Ushbu risk banklar kredit va savdo portfelida ishtirok etishi mumkin. Qarzdor qarzni so'ndirish bo'yicha o'zining majburiyatlarini o'z vaqtida va to'la hajmda bajara olmasa, kredit portfelida kredit xatari yuzaga keladi. U aktivlarning sifati va kasod (defolt) ehtimoli/shartnomani bajara olmaslik bilan uyg'unlashadi. Kredit xatarini qisman diversifikatsiya qilsa bo'ladi, lekin uni butkul yo'q qilib bo'lmaydi³;

- likvidlik riski- bankning me'yoriy faoliyat ko'rsatishi uchun likvidlilik yetishmagan holatda yuzaga keladi va to'lovlar muddati kelgan vaqtda, bankning o'z majburiyatlari bo'yicha javob berish qobiliyati pasayadi.;

- operatsion risk: Bazel qo'mitasi tomonidan "ichki jarayonlar, odamlar va tizimlar noto'g'ri yoki ishlaymay qolganligi yoki tashqi hodisalar natijasida yuzaga keladigan haqiqiy yo'qotishlar natijasida kelib chiqadigan qiymatning o'zgarishi xavfi"⁴ sifatida ta'riflangan.

- Bozor riski: bozor kon'yunkturasi o'zgarishi natijasida zarar ko'rish⁵.

An'anaviy bank pulni qarzga beradi va qarz ustidagi foiz hisobidan daromad oladi. Bunday banklar har qanday moliyaviy ehtiyoj uchun, xoh u mol-mulk sotib olish uchun bo'lsin, xoh boshqa maqsad uchun bo'lsin, pulni foiz asosida qarzga beradi. Agar bank aktivlarni sotib olishni moliyalashtirsa ham, u aktivlarga egalik qilmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, aynan shu sababli, an'anaviy banklar islom banklari duch kelishi mumkin bo'lgan bir qancha xavf-xatarlarga duch kelmaydi. Biroq, masalaning boshqa tomoni shundan iboratki, an'anaviy banklar, faqat pul qarz berish "erkinligi"dan foydalanib, katta hajmdagi mablag'lar jalb qilish bilan shug'ullanishadi va ularning pulga asoslangan moliyaviy aktivlari nazariy jihatdan cheksiz xatarlarga duch kelishi mumkin. Aksincha, aktivlar bilan ta'minlanadigan moliyalashtirish orqali Islom banklari asosan aktivning haqiqiy qiymati tushib ketishi bilan bog'liq xatarga duch kelishadi.

Umuman olganda, Islom banklari an'anaviy banklar duch keladigan xatarlardan tashqari, yana boshqa turli xil xatarlarga duch keladi, jumladan:

- shariat talablariga rioya qilmaslik ya'ni ularni buzish xavfi;

³ Baydavlet Y.A. *Islomiy moliyasi asoslari, Toshkent, O'ZBEKISTON NMIU, 2019, 147-bet*

⁴ Al-Manna'i, Jassem, *Managing Operational Risk and How to Estimate Its Capital Requirement, Arab Monetary Fund, UAE, 2004.*

⁵ Financial Sai'd, Hussein, *Risk Management in Islamic Institutions, Courses of Risk Management, Jordan, 2015.*



2-TOM, 5-SON

-mahsulot va moliyalashtirish turi bilan bog'liq xatarlar (product/mode of financing risk);

-jarayonlardagi xatarlar (process risk);

-qarshi tomon (ya'ni mijoz, sotuvchi/ishlab chiqaruvchi, tashuvchi...) xatarlari (counter party risk) va boshqalar⁶.

Islomiy banklar risklarni ikki bosqichda ko'rib chiqish lozim bo'ladi⁷.

Birinchi bosqichda barcha xatarlarning sabablari muvofiq tahlildan o'tkazilib, umuman bank biznesi uchun xos bo'lgan xatarlar identifikatsiyalab olinadi. Islomiy amaliyot usulini qo'llash natijasida paydo bo'lgan maxsus xatarlar shariat bo'yicha xatarlarni hamda uning har bir manbasi bo'yicha xatarlarni o'z ichiga oladi.

Identifikatsiyalashning ikkinchi bosqichi asosiy islomiy moliyaviy bitimlarning har bir shakli uchun o'ziga xos xatarlarni ichiga oladi, chunki bir bitimdan ikkinchi bitimgacha xatarlarning manbalari o'zgaradi. Masalan, salam bitimidagi bozor xatari tovar xatari sifatida aniqlanadigan va yetkazib berilgach, sotilgan hisoblanadigan tovarlar bahosining tebranishidan kelib chiqadi. Boshqa tomondan, ijara bitimi bo'yicha bozor xatarlarining manbalari lizing obyektiga bahosidagi (tovar xatari yoki aktivlarning kursi xatari) tebranishlar, lizingga berilgan asosiy vositalar qoldiq qiymatining o'zgarishi (qoldiq qiymat xatari) yoki belgilangan stavka bo'yicha uzoq muddatli ijara to'lovlari holatida, ijara to'lovini aniqlash uchun asos bo'lgan savdo ustamasi bo'lishi mumkin (savdo ustamasi xatari). Shunday qilib, har bir moliyaviy bitim xatarining ixtisoslashuvi shartnomaning alohida tarkiblarini tahlil qilish yo'li bilan va nazorat hamda standartlashtirish tashkilotlari tomonidan o'rnatilgan talablarga muvofiq aniqlanadi (masalan, AAOIFI buxgalteriya standartlari va shariat standartlariga muvofiq).

Islomiy moliyaviy xizmatlar bo'yicha kengash (IFSB) – butun jahonda islomiy xizmatlarni taklif etuvchi islomiy moliyaviy muassasalar faoliyati qoidalarini o'rnatadigan xalqaro tashkilotdir, shuning uchun har bir xatar shakllarini boshqarish uchun risk-menejmentga nisbatan ayrim qoidalar kiritilgan:⁸

- Islomiy moliyaviy muassasalar hisobot jarayoni va xatar menejmenti keng qamrovli tizimiga ega bo'lishlari shart;

- Islomiy moliyaviy muassasalar moliyalashtirish va shartnomani amalga oshirish turli bosqichlaridagi ehtimoliy kredit xatarlarini e'tirof etish strategiyasiga ega bo'lishlari shart;

⁶ Imamnazarov J.N. *Islom banklarida xatarlarni boshqarish. Taxlil 2021.islommoliyasi.uz*

⁷ Baydavlet Y.A. *Islomiy moliyasi asoslari. «O'ZBEKISTON» NMIU. 2019. 148-bet*

⁸ Baydavlet Y.A. *Islomiy moliyasi asoslari, Toshkent, O'ZBEKISTON NMIU, 2019, 163-bet*



2-TOM, 5-SON

- Islomiy moliyaviy muassasalar tomonidan huquqiy ekspertiza amalga oshirilishi shart;
- Islomiy moliyaviy muassasalar kredit xatari hisobi va uning o'lchovi mos uslubiyatiga ega bo'lishlari shart;
- Islomiy moliyaviy muassasalar shariatga muvofiq kredit xatarini kamaytirish bo'yicha texnikaga ega bo'lishlari shart;
- Islomiy moliyaviy muassasalar xatarlarni boshqarish hissadorlik kapitaliga qo'yilmalar kiritish xatariga nisbatan hisobotlar jarayoni mos strategiyasiga ega bo'lishlari shart;
- Islomiy moliyaviy muassasalar o'zlarining baholash uslubiyati muvofiqlashtirilgani va kelishilganini kafolatlashlari shart;
- Islomiy moliyaviy muassasalar hissadorlik kapitaliga investitsiyalar bilan bog'liq o'zlarining faoliyatiga nisbatan kapitaldan chiqish strategiyasini aniqlashlari va o'rnatishlari shart.

Islomiy banklar uchun xatarlarni baholash juda muhim va nihoyatda murakkab qadamdir. Xatarlarni baholashdagi xatolar tufayli islomiy banklarning xatarlarini mulohazali boshqaruv zanjiri uzilib qolishi mumkin. Shuning uchun islomiy bank sanoatida, ularning o'lchoviga nisbatan umumiy yondashuvni shakllantirish zarurligi ayon bo'lib qoldi. Ushbu bobda har bir aniqlangan xatarning keng tarqalgan baholash usullari ko'rib chiqiladi. Xatar qiymati (VaR), kutilayotgan taqchillik (ES), kredit reytinglari, kredit qobiliyati reytinglari, uzilishlar tahlili, muddatlilik tahlili va voqealar rivoji tahlili – mana shu vositalar jumlasidandir .

1-jadval

O'lchov usullari	Kredit riski	Bozor riski	Amaliyot riski
Risk qiymati (VaR)	v	v	v
Kutilayotgan taqchillik (ES)	v	v	v
Kredit reytingi	v		
Kredit qobiliyati reytingi	v		
Uzilishlar tahlili		v	
Davomiylik tahlili		v	
Ta'sirchanlik tahlili	v	v	v
Ruhiy test	v	v	v
Senariylar tahlili	v	v	v



2-TOM, 5-SON

Sifat usullari(masalan, malakaviy tajriba, aqliy hujum)			v
---	--	--	---

1-jadval. Asosiy bank risklari xaritasi va ularni o'ldash usullari

Islomiy banklar uchun risklarni boshqarish, ular xalqaro standartlar va qoidalarga rioya etishga majbur ekanliklari sababidan ham muhimdir. Lekin, islomiy banklar islomiy banking usuli va shunga mos moliyaviy amaliyotlar tarkibiga javob beradigan standartlashgan va adekvat usullarni topishlari lozimki, bu xatarlarni samarali boshqarish va boshqaruv qarorlarini asoslashni ta'minlashi uchun ham kerak.

Xulosa. Islomiy banklarga risklarni kamaytiruvchi ayrim vositalarni tatbiq etishga ruxsat berilmaydi, chunki ular shariat qoidalariga javob bermaydi. Islomiy banklarning risklarni kamaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarini murakkablashtiruvchi yana bir sabab bor: islomiy moliyaviy bitimlarning turli bosqichlari jarayonida xatarlar qaytalaydi va almashinib turadi. Aniqrog'i, moliyaviy muassasalarning o'zidagi kamchiliklar va vositalarning mukammal emasligi bois, ular oshib boradi. Buning natijasi o'laroq xatarlarni, ayniqsa, amaliyot xatarlarini boshqarish qiyin bo'lib bormoqda. Shunday qilib, ularni pasaytirish islomiy banklar faoliyatining yangi yo'nalishi hisoblanadi, bu esa shariat talablariga javob beruvchi xatarlarni kamaytirishning innovatsion usullarini ishlab chiqishga ehtiyoj sezadi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun nafaqat shariat sohasida, balki xatarlarni boshqarishning zamonaviy usullari sohasida ham bilimlarga ega bo'lish kerak bo'ladi va quyidagi talablar qo'yiladi:

- Islom banklaridagi turli islomiy moliya shakllari manbalarini ajratish uchun to'g'ri va sodda asoslarni o'rnatish;
- Turli risklarni tushunish, aniqlash, o'ldash va davolash uchun mustaqil risklarni boshqarish bo'limlarini yaratish;
- Kreditni taqsimlash va portfelni diversifikatsiya qilish;
- Kredit berish va tasdiqlash uchun asosli mezonlarni belgilash;
- Hamkorlarni sinchiklab tanlash, kuzatish va nazorat qilish;
- Olingan kafolatlarning mustahkamligini va shariat tomonidan maqbulligini tekshirish;
- Tegishli, muvozanatli darajani saqlash;
- pul manbalari va bandligini diversifikatsiya qilish;
- mas'uliyatni aniq ajratish va favqulodda vaziyatlar rejalarini belgilash.

Ishonch bilan aytish mumkinki, barcha mamlakatlardagi islom banklari milliy va xalqaro darajada keng bank bazasini yaratish uchun har qanday mumkin bo'lgan



2-TOM, 5-SON

qiyinchiliklarga qarshi turadigan, shuningdek, bir-biri bilan integratsiyalashgan iqtisodiy mezonlarni kelishib olishlari va o'rnatishga intilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bal'jooz, Hussein. Managing and Controlling Bank Risk (Paper submitted to the National Forum on the 3rd Millennium Banking System: Competition, Risk and Technology), Jijel University, Algeria, 2005.
2. Nurhafiza Malim, Islamic Banking & Risk Management: Issues and Challenges, Journal of Islamic Banking & Finance, Malasia, 2015
3. Baydavlet Y.A. Islomiy moliyasi asoslari, Toshkent, O'ZBEKISTON NMIU, 2019, 144-163 betlar
4. Ruma and Yolla. Challenges in implementing capital adequacy guidelines to Islamic Banks. Botswana, Journal of Banking Regulation, 2022, p3
5. Financial Sai'd Hussein, Risk Management in Islamic Institutions, Courses of Risk Management, Jordan. 2015
6. Al-Manna'i, Jassem, Managing Operational Risk and How to Estimate Its Capital Requirement, Arab Monetary Fund, UAE, 2004.
7. Gleason, James T. Risk, The New Management Imperative in Finance, Bloomberg Press, Princeton, New Jersey, 2000.
8. Greuning H.V. and Iqbal Z. Risk Analysis for Islamic banks, Washington: the world bank, Washington, 2008.
9. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions Shari'ah standards, Manama 2015 P.1345
10. Mufti Muhammad Taqi Usmani, An Introduction to Islamic Finance. Malasia 1998, p95.
11. Baydavlet Y.A. Islomiy moliyasi asoslari, «O'ZBEKISTON» NMIU, 2019, 144-bet
12. A.Ravshanov., B.Abdurasulov., "Islom iqtisodiyoti va fiqhiy qoidalar" fani bo'yicha o'quv qo'llanma.- Toshkent. 2020. 221 b
13. islommoliyasi.uz
14. <https://cyberleninka.ru>

